

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

MIRZALIYEV SINDOR RAJABOVICH

**URGUT TUMANINING TIBBIY GEOGRAFIK HOLATI VA AHOLI
SALOMATLIGINI SOTSIAL GEOGRAFIK ASOSLARI**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по географическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)
on geographical sciences**

Mirzaliyev Sindor Rajabovich

Urgut tumanining tibbiy geografik holati va aholi salomatligini sotsial geografik asoslari..... 3

Мирзалиев Синдор Ражабович

Медико-географическая ситуация Ургутского района и социально-географические основы здоровья населения..... 21

Mirzaliyev Sindor Rajabovich

Medical-geographical characteristics of Urgut district and the socio-geographical foundations of population health formation 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

MIRZALIYEV SINDOR RAJABOVICH

**URGUT TUMANINING TIBBIY GEOGRAFIK HOLATI VA AHOLI
SALOMATLIGINI SOTSIAL GEOGRAFIK ASOSLARI**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PHD/Gr384 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.samdu.uz) va «Ziynet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Ravshanov Aliqul Xudoyberdiyevich
geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: Turdimambetov Izimbet Rahmetovich
geografiya fanlari doktori (DSc), professor

Egamqulov Husniddin Erkabayevich
geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 25-aprel soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel.: (+99899) 776-77-25, faks: (+99866) 239-11-40, e-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot - resurs markazida tanishish mumkin (№ _____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 10-aprel 2026-yil tarqatildi.
(2026-yil 31-mart №10-raqamli reyestr bayonnomasi).



S.B. Abbasov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

B.A. Meliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, g.f.f.d (PhD), dotsent

M.R. Usmanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, g.f.d (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida aholining jadal o‘sishi, urbanizatsiya jarayonlarining tezlashuvi hamda global iqlim o‘zgarishlari inson salomatligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) va Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) prognozlariga ko‘ra, 2048-yilga borib dunyo bo‘yicha o‘lim holatlari soni 90 millionga yetishi kutilmoqda¹. Shuningdek BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo‘yicha dasturini 3-maqсадida “Sog‘lom turmush tarzini ta’minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko‘maklashish”² vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning yechimlarida aholining umr davomiyligini uzaytirish, farovonligini ta’minlash va sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, atrof-muhit barqarorligini saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Jahonda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar tibbiyot geografiyasi fanining ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Xususan, kasalliklarning hududiy differentsiallashtirishi, ularning ekologik omillar bilan bevosita bog‘liqligi, aholi umr ko‘rish davomiyligi va kasallanish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsion munosabatlarni aniqlash bo‘yicha global miqyosda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada kasalliklarning tabiiy omillar bilan aloqadorligini tahlil qilish, ularni turkumlash, kasallik o‘choqlarini aniqlashda matematik-statistik va GIS metodlarini qo‘llash, hududiy monitoring va prognozlash tizimlarini yaratishga xalqaro miqyosda ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Respublikamizda aholi salomatligini yanada mustahkamlash, tibbiyot tizimini yanada yaxshilash, ortib borayotgan ayrim kasalliklarni turlarini kamaytirish onalik va bolalikni muhofaza qilishga doir bir qator islohotlar amalga oshirilishi natijasida yaxshi natijalarga erishilmoqda. Xususan, «Aholi salomatligi-2030» milliy strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-iyuldagi 112-sonli “Aholiga tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida tasdiqlangan. Unga ko‘ra, jumladan, “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish bo‘yicha harakatlar dasturini qabul qilishni o‘z ichiga oladi. Mazkur dasturda aholi salomatligi alohida yo‘nalish sifatida belgilangan. Ushbu yo‘nalishdagi vazifalarni amalga oshirishda, jumladan 2030-yilgacha onalar va bolalar o‘limini keskin kamaytirish, yuqumli va surunkali kasalliklarning tarqalishiga qarshi kurashish, ekologik nazoratni kuchaytirish va aholining hayot davomiyligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida” Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

¹ World health statistics 2023: monitoring health for the SDGs, Sustainable Development Goals file:///C:/Users/User/Downloads/9789240074323-eng.pdf

² <https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs>

2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari ushbu faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi: Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” va VIII. “Yer haqidagi fanlar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi: Ta’kidlash lozimki, tibbiy geografik tadqiqotlar, jumladan aholining kasallanish ko‘rsatkichlari hamda kasalliklarning hududiy tarkibi masalalari xorijlik, sobiq Ittifoq va mahalliy olimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, mazkur yo‘nalish bo‘yicha xorijiy olimlar orasida J.Mey, S.Shvars, F.K.Xea, R.Pentl, T.Miller, D.X.Medouz, Ye.Shaalya, U.Bordjers va boshqalarning ham tibbiyot geografiyasining rivojlanishida xizmatlari katta. Bunday tadqiqotlar sobiq ittifoq olimlari xususan, D.K.Zabolotniy, Y.N.Pavlovskiy, A.A.Shoshin, A.V.Chaklin, A.P.Avsin, Y.I.Ignatev, B.B.Proxorov, Y.L.Rayx, V.P.Podolyan, A.A.Keller, A.G.Voronov kabi olimlarni ilmiy tadqiqotlarida ham uchraydi. Mamlakatimizda tibbiyot geografiyasiga biroz yaqin sohalar bilan A.Soliyev, X.T.Tursunov, N.K.Komilova I.Turdimambetov, A.X.Ravshanov M.Hamroev, N.J.Muxammedova singari mutaxassislar shug‘ullanishgan.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning har biri tibbiyot geografiyasining u yoki bu tarmog‘i rivojiga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Xususan, tibbiyot geografiyasining nazariy masalalari bo‘yicha A.A.Shoshin, D.K.Zabolotniy, Y.L.Rayx; tibbiy geografik rayonlashtirishga doir ilmiy tadqiqotlar B.B.Proxorov, V.P.Podolyan, Y.I.Ignatev, A.G.Voronovlar tomonidan amalga oshirilgan. Onkogeografiyaning asoschisi sifatida esa A.V.Chaklin, geografik patologiyaning rivojlanishiga samarali hissa qo‘shgan olimlar qatorida A.P.Avsin alohida e’tirof etiladi. Y.N.Pavlovskiy muayyan landshaftlarda uchraydigan yuqumli kasalliklar o‘choqlari to‘g‘risidagi ta’limotga asos solgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Janubi-g‘arbiy O‘zbekiston geosistemalarini barqaror rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy geografik xususiyatlari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqot ishining maqsadi: Urgut tumanining tibbiy geografik holati va aholi kasallanishini sotsial geografik jihatlarini tahlil qilish asosida aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan ilmiy hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqodning vazifalari:

aholi salomatligiga tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik omillarning ta’sirini majmual tahlil qilish orqali tumanning tibbiy geografik holatini aniqlash;

tuman aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatish sohasining muammolarini o'rganish, uni yaxshilash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Urgut tumanida shakllangan tibbiy geografik holatni sotsiologik so'rov-anketa usuli asosida OP va OShP lar kesimida baholash;

tuman tibbiy geografik holatini ekonometrik modellashtirish va prognozlar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida Urgut tumanining aholisi va aholi salomatligi olingan.

Tadqiqot predmeti: Tumanning tibbiy geografik holatini tahlil qilish, aholi salomatligini ta'minlashning geografik jihatlarini o'rganish hisoblanadi.

Tadqiqot usullari: Dissertatsiyada hududiy tahlil, kartografik, tarixiy, statistik, geografik taqqoslash, balans, tizim-tarkib va sotsiologik so'rov usuli kabi tadqiqot metodlardan keng foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Urgut tumani aholisi salomatligiga tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik omillarning ta'siri majmual tahlil qilinib, tumanda yuzaga kelgan tibbiy geografik holat OP va OShP doirasidagi tafovutlari aniqlangan;

tuman aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatish sohasining muammolari, tibbiy muassalar va tor mutaxassislar (onkolog, oftalmolog, ginekolog), diagnostika markazlarini yetishmasligi aniqlangan va ularni kengaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Urgut tumanida shakllangan tibbiy geografik holat aholi orasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov-anketa usuli asosida aniqlangan hamda oilaviy poliklinika va oilaviy shifokorlik punktlari kesimida baholangan;

tuman tibbiy geografik holatida asosiy guruh kasalliklari sanaluvchi yurak qon-tomir, asab tizimi, buyrakda tosh hosil bo'lishi, kam qonlik kasalliklari dinamikasi ekonometrik modellashtirilgan va statistik tahlillar asosida prognozlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

olib borilgan tadqiqotlar natijasida tuman hududining nozogeografik holatiga ta'sir etuvchi (tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik) omillarni ilmiy jihatdan tahlil qilish asosida aholi salomatligi bilan bog'liq muammolar o'rganilgan va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ayrim kasalliklar turlarining ko'p tarqalishi mustaqillikgacha bo'lgan davrda qishloq xo'jaligining tamakichilikka ixtisoslashganligi bilan bog'liqligi aniqlangan;

oshqozon-ichak va o't qopi kasalliklarini ichimlik suvi qattiqligi va minerallasishi bilan korrelyatsion bog'liqligi aniqlangan hamda ushbu kasalliklarning 2030-yilgacha prognozi ishlab chiqilgan;

kasalliklarning tarkibi va dinamikasini o'rganish asosida prognozlashtirish va modellashtirish amalga oshirilgan hamda turli mavzudagi mavzuli kartalar yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari hamda sog'liqni saqlash tizimi tashkilotlari va muassasalari hisobotlaridan foydalanganligi, ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullar, uning

doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar ilmiy-asoslangan manbalardan olingani, o'tkazilgan so'rovnomaning anketa shakliga asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati globallashtirish va iqlim o'zgarishi sharoitida Urgut tumani aholisi salomatligi va kasallanishining hududiy xususiyatlarini, shuningdek, aholi orasida tarqalgan kasalliklarni zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalangan holda tahlil qilish va baholash, prognoz va ekonometrik modellashtirishni amalga oshirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, asosiy mazmuni va xulosalari hamda muallif tomonidan o'tkazilgan anketa-so'rov natijalari tumanda ijtimoiy muammolarni bartaraf etish dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tuman aholisini ijtimoiy muhofaza qilish, tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilashda katta ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Urgut tumanining tibbiy geografik holati va aholi salomatligini sotsial geografik asoslarini o'rganishga oid olib borilgan tadqiqotlar, ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

Aholi salomatligiga tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik omillarning ta'siri majmualari tahlil qilinib tumandagi tibbiy geografik holat haqidagi xulosalar O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil 1-avgustdagi 05-28/17640-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Urgut tumani aholisi salomatligiga ta'sir etuvchi tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik omillarni aniqlash imkonini bergan;

tuman aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatish sohasining muammolari o'rganilib, uni yaxshilash bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalari O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil 1-avgustdagi 05-28/17640-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar tibbiy xizmat ko'rsatish sohasining ayrim muammolarini yechishga imkon bergan;

Urgut tumanida shakllangan tibbiy geografik holat sotsiologik so'rov-anketa usuli asosida OP va OShP lar kesimida baholashlari O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi tizimida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil 1-avgustdagi 05-28/17640-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tumanda tibbiy xizmat ko'rsatish sohasidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora tadbirlar rejasini ishlab chiqish imkonini bergan;

tuman tibbiy geografik holati haqida ishlab chiqilgan ekonometrik modellar va prognozlar O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil 1-avgustdagi 05-28/17640-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tuman aholisi orasida uchraydiga ayrim kasalliklar va ularning turlarini yetti yillik dinamikasini aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 2 tasi respublika hamda 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 127 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida olib borilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ta'kidlangan, uning dissertatsiya bajarilgan Oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi qayd etilgan, ishning maqsadi, vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning amaliyotda joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tibbiy geografik holatini o'rganishning nazariy asoslari”**, deb nomlangan birinchi bobida tibbiy geografik holatni o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari, uni o'rganishdagi zamonaviy yondashuvlar hamda tadqiqot metodlari yoritilgan. Bunda Yevropa, AQSH va MDH mamlakatlari olimlarining fikrlari, tadqiqotlarining mazmuni keltirilgan va o'zaro taqqoslangan. Unga ko'ra tibbiy geografik holatni o'rganishda va kasalliklarni rivojlanishi sabablari, tibbiy geografik nazariyalarini rivojlantirishda U.Pattison G.MacDonald, Jon Snou, N.F.Gamaley, M.Vine, W.Gesler, M.Maede, C.Valencius, A.I.Puchkov, V.V.Pokshishevskiy, E.N.Novikova, A.Dmitriev kabi olimlarning nazariya va modellari kiritilgan. Bugungi kundagi tibbiy geografik muammolarining ko'rinishi, kasalliklarning tarqalish areallari va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar keltirilgan.

«Urgut tumani tibbiy geografik holati va unga ta'sir etuvchi geografik omillar», deb nomlangan ikkinchi bobida Urgut tumani tibbiy geografik holatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy va iqtisodiy geografik omillar, aholisi kasallanishining tadrijiy o'zgarishlari hamda tuman aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatishning geografik jihatlarini yoritishga qaratilgan. Mazkur bobda tumandagi sanoat korxonalari, qishloq xo'jaligi va transport tarmoqlarining yillar davomida o'zgarishi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, tuman aholisining umumiy kasallanish ko'rsatkichlari, keng tarqalgan kasallik turlari, tumanda uchraydigan ayrim kasalliklarning geografik tarqalishi va ularga ta'sir etuvchi omillar yoritib berilgan, ularning natijalari jadval va rasmlarda ham o'z aksini topgan.


Urgut tumani iqtisodiy xususiyatiga ko'ra agrar-industrial qishloq tumani hisoblanadi. Hududining asosiy qismida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiriladi. Urgut tumanida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishning o'sish suratlari 2010-yilda 97,7%, 2022 yilga kelib 104,6 %ni tashkil qildi. Oxirgi yillarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish hajmi ham o'sib kelmoqda.



1-rasm. Urgut tumani qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning o‘shish sur‘atlari. (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan foizda) (manba: samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.)

Ushbu ma‘lumotlar Urgut tumanidagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning o‘shish sur‘atlarini ko‘rsatadi. Ma‘lumotlar foizda ifodalangan va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan taqqoslangan. Mazkur ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki 2010-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘shish sur‘ati 111,5% ni tashkil etgan. 2015-yilda bu ko‘rsatkich 107,0% ga tushgan va 2020-yilda o‘shish sur‘ati 105,0% ni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin. 2023-yilda esa 105,1% ga ko‘tarilgan. O‘zgarishlar tendentsiyasiga etibor qaratadigan bo‘lsak, 2010-yildan 2015-yilgacha o‘shish sur‘ati biroz pasaygan (111,5% dan 107,0% ga). 2015-yildan 2020-yilgacha ham yana bir oz pasayish kuzatilgan (107,0% dan 105,0% ga). 2020-yildan 2023-yilgacha o‘shish sur‘ati deyarli o‘zgarmagan (105,0% dan 105,1% ga).

Shu bilan birgalikda tuman sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha viloyatda oldingi o‘rinda turadi. Sanoat mahsulotlari hajmi bo‘yicha Samarqand shahar va Jomboy tumanlaridan keyin 3-o‘rinda turadi.




2-rasm. Urgut tumani sanoat mahsuloti hajmi mlrd so‘mda. (manba: Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.)

Yuqoridagi 2-rasmda tuman sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2010-yildan boshlab o‘shib kelgan. Bilamizki, sanoat mahsuloti hajmining o‘shishi tuman iqtisodiyotining rivojlanishi va ish o‘rinlarining ko‘payishiga olib keladi. Xususan:

2010-yilda jami sanoat maxsulotlari hajmi 116,3 mlrd soʻmni tashkil qilgan boʻlsa, 2020-yilga kelib 10 yil ichida 1558,1 mlrd soʻmni, 2023-yilda esa deyarli yigirma barobardan koʻp yani 2441,5 mlrd soʻmga oshgan. Yuqoridagi statistik maʼlumotlar shuni koʻrsatayabtki tuman soʻngi oʻn yillikda sanoat mahsulotlari yuqori tezlik bilan oʻsib kelgan. Buning asosiy sabablaridan Urgut erkin iqtisodiy zonasi va boshqa investitsiya loyihalarining sanoatga taʼsiri sezilarli oʻsganligi, shu bilan birgalikda chet el investitsiyalarining koʻpayishi sanoat ishlab chiqarishini oshirishga xizmat qilgan. Shunisi aniqki, viloyatda ishlab chiqarilgan jami sanoat hajmi boʻyicha ham tuman qolgan tumanlarga nisbatan yuqorida turadi.

Tuman sanoati va uning tarmoqlari tarkibida yetakchi oʻrinni toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish egallab turibti. Xususan, sanoatning bu tarmogʻi oʻtgan yillarga qaraganda koʻproq suʼratda oʻsgan. 2018-yilda mazkur tarmoqda jami 414,2 mlrd soʻmlik mahsulot ishlab chiqargan boʻlsa, 2020-yilda 573,62 mlrd soʻmga oshgan. Tuman 2023-yilga kelib mazkur sanoat tamogʻidda 930,5 mlrd soʻmlik mahsulot ishlab chiqagan. Tuman sanoatida oziq ovqat mahsulotlari va kiyim-kechak ishlab chiqarish ham eng yirik tarmoqlaridan hisoblanib, mazkur tarmoqlar oxirgi yillarda keskin oshgan. Mazkur sanoat tarmogʻi tumanda koʻpayayotganligidan dalolat beradi.

Xizmat koʻrsatish sohasining rivojlanishi uning tarkibidagi transport va logiska sohasining rivojlanishiga olib keladi. Transport va logistika tizimi esa hududiy iqtisodiy oʻsishning muhim koʻrsatkichlaridan biri hisoblanadi. Yuk tashish hajmining yillik oʻsishi iqtisodiy faollik darajasi, infratuzilma ishlab chiqarish va tarmoqdagi modernizatsiya jarayonlari bilan bogʻliqdir.



3-rasm. Urgut tumanida tashilgan yuk (ming tonna). (manba: samarqand viloyat statistika boshqarmasi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.)

Urgut tumanida yuk tashish hajmi yildan-yilga muntazam oshib borganligini 3-rasmdan shuni koʻrish mumkin. Yaʼni, 2017-yildan 2023-yilgacha boʻlgan davrda yuk 35% dan ortiq oshganligini koʻrishimiz mumkin. 2020-2023 yillar davomida oʻsish surʼati ortgan boʻlib, yillik oʻrtacha 100 ming tonnadan ortiq yuk tashish hajmi qoʻshilgan. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 12-yanvardagi farmoniga asosan “Urgut erkin iqtisodiy zonasi” tashkil etilganligi va mazkur iqtisodiy zona mavjud xomashyo hamda infratuzilmadan samarali foydalanib, qishloq joylarda sanoatni rivojlantirish bilan birgalikda, yangi ish oʻrinlari ochishda muhim oʻrin tutganligini alohida aytib oʻtish joizdir. Tuman sanoati va

xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlanib o'sishida ushbu zonani ahamiyati kattaligi bilan ajralib turadi. 3-rasmdan ham buni bilishimiz mumkin.

Tuman transport tarmoqlarini ichida yo'lovchi tashishni ham alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Xususan, tuman nafaqat Samarqand viloyati balki respublikadagi eng ko'p aholi yashaydigan manzilgohlardan biri hisoblanishi ham mazkur tarmoqdan foydalanish ko'rsatkichini oshiradi.

Malumki, atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar asosan sanoat korxonalarini va transportdan chiqadigan moddalardir. Xususan, tumanda transportda tashilgan yuklar ohirgi yillar davomida o'sib borgan. 3-rasmda tumanda 2017-yildan 2023-yilgacha davr oralig'ida tashilgan yuklar grafigi tasvirlangan. Tuman sanoatlashayotganligini va aholi iste'molini hisobga oladigan bo'lsak mazkur ko'rsatkich o'sib kelayotganligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga yo'lovchi tashish hajmi ham aholi ko'paygani bilan birga yo'lovchi tashish aylanmasi ham oshib borgan.

Shu bilan birgalikda tumandan tadqiqot uchun tanlab olingan hududlardan tuproq va ichimlik suvidan na'munalar olib tahlil qilganimizda bir qancha og'ir va inson salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi elementlar aniqlandi. Ushbu elementlarni hududda tarqalish qonuniyatlari turlicha. Ayrimlari shu hudud tog' jinslari tarkibida uchrasa ayrimlari Zarafshon daryosi bilan bog'liq. A.Rahmatullayevni (2018) tadqiqotida Zarafshon daryosining yuqori qismlarida suvning o'rtacha minerallashtirish darajasi 250-300 mg/l bo'lib, 1-May to'g'onida 400-450 mg/l.

A.Rahmatullayev tadqiqoti davomida 1-May suv tugunida Zarafshon daryosidagi ifloslovchi moddalar quyidagi miqdorlarda qayd qilingan (REM ko'rsatgichida:) nitritlar-0,75, mis-1,0, rux-5,4, fenollar-1,2, xrom - 1,2 margimush-0,5 va boshqalar. Bunga sabab Tojikiston hududidagi Anzob tog'-boyitish kombinatidan Samarqand vohasiga 1943 yildan boshlab daryo orqali har yili 90-120 tonna surma kirib turadi va uning umumiy miqdori hozirgacha 50 ming tonnadan oshdi. Shu bilan birgalikda surma bilan vohaga simob, margimush, rux, qo'rg'oshin mis va boshqa og'ir metallar birga keladi.

Ximik tadqiqotchi D.Isakovani tadqiqotlarida ham Zarafshon daryosini yuqori qismidan olgan tahlillarida kimyoviy og'ir metallar yoki elementlarni o'lchagan. Unga ko'ra Cu, Pb, Cd, Cr, Bi, Tl, As, Fe kabi elementlar uchragan va ularning ayrimlari ruxsat etilgan meyorlardan yuqoriligi ko'rsatilgan. Yana bir ximik tadqiqotchi F.To'qсанov ham Zarafshon daryosidan O'zbekistonga kirish qismida tahlillar olgan va tahlillarida NH₄⁺, NO₂⁻, NO₃⁻, PO₄³⁻, SO₄²⁻, Cl⁻, Cr, Fe, HII kabi elementlar borligini laboratoriya sharoitida aniqlagan.

Shuningdek sanoat korxonalarini va transport vositalaridan chiqadigan zararli moddalar ham inson sog'ligiga ta'siri yuqori. 4-rasmdan ham atmosferaga chiqarilayotgan chiqindilarni ko'payib borayotganligini ko'rish mumkin va ularning asosiy qismi sanoat korxonalaridan chiqayotgan chiqindilar va transport vositalaridan chiqayotgan zararli moddalar tashkil qiladi.

Tumandagi sanoat korxonalarini chiqindilari tarkibidagi og'ir metallar, zaharli kimyoviy moddalar havoga, tuproqqa va suvga tushadi va bu moddalar organizmga kirib, jigar, buyrak va miyani shikastlashi, saraton rivojlanishiga olib kelishiga zamin yaratadi. Transport vositalaridan chiqadigan uglerod oksidi, azot oksidi va tutun zarrali moddalar esa havoni ifloslantiradi. Bu moddalar nafas

yo'llarini yallig'lantirib, astma, bronxit kabi kasalliklarni qo'zg'atadi. Shuningdek, yurak-qon tomir tizimiga ta'sir qilib, yurak kasalliklari xavfini oshiradi.

Tumanda aynan yuqoridagi kasalliklar xususan, oshqozon-ichak, buyrak, nafas olish va allergik kasallilarni ko'payib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Urgut tumanida 2023-yil aholining umumiy kasallanishi 340889 kishini tashkil qildi. Shundan, 119718 nafari 14 yoshgacha bo'lgan bolalar, 17750 nafari 15-17 yoshli o'smirlar va 203421 nafarini kattalar tashkil qildi.

1-jadval

Urgut tumani aholisining umumiy kasallanish ko'rsatkichlari

Yillar	Aholisi	Kasallanganlarning umumiy soni (ming kishi)	Har 100 000 kishiga nisbatan
2000	319,4	169569	53089,8
2010	389,2	294279	75611,3
2020	507,0	430949	84999,8
2023	559,2	472905	84568,1

Manba: Samarqand viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi malumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



4-rasm. Urgut tumanida poliklinikalar xizmat ko'rsatish qamrovini baholash karta sxemasi

Urgut tumani geografik sharoitlari aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va hajmiga bevosita ta'sir qiladi. Tog'li hududlarda aholi zichligi nisbatan past bo'lib, bu hududlarda tibbiy muassasalar qurish iqtisodiy jihatdan samarasiz hisoblanadi. Shu sababli, bunday hududlarda mobil tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini joriy etish zarur. Bilamizki yirik shifoxonalar hamma aholiga birday xizmat ko'rsatishi mushkul. Bu o'z navbatida tibbiy yordamga bo'lgan extiyojga ham bog'liq. Shuning uchun kichikroq ko'rinishda ambulator-poliklinikalar tashkil qilinadi. Aholiga sifatli va samarali tibbiy yordam ko'rsatish davlatning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda ambulator-poliklinikalar tibbiyot tizimining eng muhim bo'g'ini sifatida ahamiyat kasb etishini aytib o'tish joizdir. Hududlarda ambulator-poliklinika punktlari soni, ular joylashuvi va aholining ushbu

muassasalarga yetib borish imkoniyati ta'minotning birlamchi ko'rsatkichi hisoblanadi. Shuningdek, aholi zich joylashgan hududlarda tibbiy xizmat ko'rsatish punktlari sonining yetarliligi ham muhim omildir.

Poliklinikalarda faoliyat yurituvchi shifokorlar va o'rta tibbiyot xodimlarining soni ushbu muassasalarning samaradorligini belgilaydi. Har ming aholiga to'g'ri keluvchi shifokor va hamshira ko'rsatkichi tibbiyot xizmatlari sifati va ularga bo'lgan talabni aks ettiradi.

O'z navbatida ambulator-poliklinikalar hududiy jihatdan teng taqsimlangan bo'lishi ham aholi uchun tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Ayniqsa, qishloq joylarida bu muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ushbu hududlar aholisi ko'pincha asosiy tibbiy yordamga yetarlicha ega bo'lmaydi. Ambulator-poliklinikalar aholi orasida profilaktika choralari, davolash va diagnostika ishlarini amalga oshiruvchi birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish nuqtalaridir. Ularning yetarlicha ta'minlanganligi natijasida kasalliklarning oldini olish va davolash samaradorligi ortadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan davlatlarda har 100 000 aholiga 250-500 nafar tibbiyot xodimi to'g'ri keladi. O'zbekiston sharoitida esa so'nggi ma'lumotlar asosida har 100 000 aholiga o'rtacha 130-150 nafar xodim to'g'ri kelmoqda. Urgut tumanining ayrim hududlarda tibbiyot xodimlarining yetishmasligi holatlari kuzatiladi. Bu ayniqsa tog'li va qishloq joylarida yaqqol seziladi. Tog'li hududlarda ishlash istagi bo'lgan malakali vrachlar va tibbiyot xodimlari soni ham yetarli emas.

Vrachlar soni va ularning hududiy taqsimoti haqida aytadigan bo'lsak, dunyo bo'ylab vrachlar soni va ularning hududlar bo'yicha taqsimoti turlicha. Rivojlangan davlatlarda, ayniqsa, Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida har 1 000 kishiga to'g'ri keladigan vrachlar soni yuqori. Masalan, Shveysariya va Germaniya kabi mamlakatlarda bu ko'rsatkich 4-5 nafarni tashkil etadi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich past bo'lib, ko'pincha har 1 000 kishiga 1-2 nafar vrach to'g'ri keladi. O'zbekiston misolida olganda, so'nggi yillarda tibbiyot sohasi rivojlanib, vrachlar soni oshib borayotgan bo'lsa-da, ayrim chekka hududlarda vrachlar yetishmovchiligi muammosi hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Bu holat ayniqsa, qishloq hududlarida yaqqol seziladi. Xususan, Samarqand da viloyati har 1 000 kishiga 2,9 ta to'g'ri kelsa, Urgut tumanida har 1 000 kishiga 1,1 ta to'g'ri keladi.

Vrachlarning yetarli darajada ta'minlanishi faqat ularning soni bilan emas, balki malaka va bilim darajasi bilan ham bog'liq. Ta'lim sifati, amaliy tajriba va muntazam ravishda malaka oshirish tizimi vrachlar sifatli xizmat ko'rsatishi uchun muhim omillar hisoblanadi. O'zbekistonda oxirgi yillarda tibbiyot universitetlari va malaka oshirish markazlarida o'quv dasturlari modernizatsiya qilinib, xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda. Bu esa o'z navbatida yuqoridagi muammolarni hal etishda ijobiy tasir etmoqda.

Vrachlar bilan ta'minlanganlik darajasi sog'liqni saqlash tizimining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u nafaqat tibbiy xizmatlarning sifati, balki butun jamiyatning sog'lom kelajagini belgilab beradi.


Dissertatsiyaning uchinchi bobi **«Urgut tumanining tibbiy geografik muammolari va aholi salomatligini optimallashtirishning istiqbol yo'nalishlari»**,

deb nomlanadi. Urgut tumani tibbiy geografik holatini sotsiologik usul asosida (OP va OShP lar kesimida) baholash, tuman tibbiy geografik holatini ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish masalalari, Urgut tumanining tibbiy geografik muammolari va ularni hal etish chora-tadbirlarini tadqiq etishga qaratilgan.

Tadqiqot davomida so‘rovnoma o‘tkazilib tumanining bitta shahar hamda 14 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarida belgilangan dastur asosida 2024-yilda o‘tkazildi. Tumanda o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnoma jami 986 ta respondent ishtirok etdi. So‘rovnoma o‘tkazish ajratib olingan shahar va MFYlarning atrofidagi qishloqlarga nisbatan o‘rni, tabiiy sharoiti hamda aholisi soni nuqtayi nazardan kelib chiqqan o‘ziga xos xususiyatlarga egaligiga alohida e‘tibor berilgan. So‘rovnoma jami 21 ta savoldan iborat bo‘lib, unda asosan aholi salomatligi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish nazarda tutilgan. Olingan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra yurak, qon-tomir, nafas olish tizimi kasalliklari, xavfli o‘smalar, endokrin tizimi, oshqozon-ichak hamda virusli gepatit kasalliklar ko‘p uchraganligini respondentlar aytib o‘tgan.

Tibbiy-geografik holatni o‘rganish sog‘liqni saqlash tizimi va rejalashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Turli hududlarda kasallanish darajasi, ekologik va demografik omillar tahlili orqali sog‘liqni saqlash muammolarini hal qilish va samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish mumkin. Ekonometrik modellashtirish usullari yordamida tibbiy-geografik jarayonlarni bashorat qilish va samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Biz Urgut tumanida uchraydigan ayrim kasalliklar turlarini ekonometrik modellashtirib, 2030-yilgacha prognoz qilib chiqdik.

Dastlab ekonometrik tahlilni berilgan ma’lumotlari, har bir kasallik kesimida vaqt o‘tishi bilan qanday dinamika hosil qilishini grafik yordamida analiz qilamiz va qanday ekonometrik modellarga mos kelishini aniqlaymiz.



Birinchi grafikdan ko‘rishimiz mumkinki Urgut tumanida umumiy kasallanishlar bo‘yicha hosil qilingan korrelatsion maydon ko‘rinishdagi chiziqli regressiya tenglamasiga yaqin ekan.

$$y1(t) = a+b*t=12532.6022*t - 293944.34 \quad (1)$$

R2 - determinatsiya koeffitsientining qiymati esa, o‘zgaruvchilar vaqt momenti t ning natijaviy miqdor y1(t) bilan qay darajada mosligini ko‘rsatadi va bizning holat uchun 95.29% ga teng ekan. Odatda ekonometrik tahlillarda ma’lumotlarga mos model topilgandan so‘ng, agarda ma’lum sifat kriteriyalarida statistik ahamiyatga ega deb topilsa, ushbu topilgan modelni prognoz masalalarida qo‘llash mumkin. Modellarning sifatini aniqlashda eng keng tarqalgan sifat kriteriyalari bu 5% lik muhimlik darajasida Fisher mezoni, student - t testi va Durbin-Watson testlari natijalaridir.

Yuqorida ko'rsatilgan (1) chiziqli regressiya tenglamasi uchun Excel va R studio dasturlarida olingan sifat kriteriyalari natijalarini mos ravishda quyidagicha keltiramiz.

2-jadval

T	y_1	$y_1(t)$	$e_t = (y_1 - y_1(t))$	e_t^2	$(e_t - e_{t-1})^2$
1	294279	306476.9	-12197.9	148789809.9	6383718.7
2	304285	319009.5	-14724.5	216812227.1	490108657.2
3	338956	331542.1	7413.9	54965212.6	22444874.6
4	346751	344074.7	2676.3	7162317.0	151422815.1
5	371589	356607.4	14981.6	224449787.3	27935429.9
6	389407	369140.0	20267.0	410753159.8	32599557.3
7	396230	381672.6	14557.4	211919174.5	652628883.9
8	383216	394205.2	-10989.2	120761598.9	5718783.4
9	398140	406737.8	-8597.8	73921484.6	11521936.4
10	414067	419270.4	-5203.4	27074982.7	31929305.2
11	420949	431803.0	-10854.0	117808552.6	4269999.9
12	435548	444335.6	-8787.6	77221334.4	280274400.4
13	464822	456868.2	7953.8	63263423.9	19798959.7
14	472905	469400.8	3504.2	12279617.9	
Jami:				1767182683.2	1737037321.7
			dw	0.98294	

R studio natijasi:

“Durbin-Watson test

data: linear model

DW = 0.98294, p-value = 0.006175

